

INTERNATIONAL CONFERENCE
“Global Horizons in Philology and Pedagogy: Experiences of Turkic Nations”
September 25, 2025

**MENASIV NUTQIY AKTLARNING MADANIYATLARARO MULOQOTDAGI O‘ZIGA
XOSLIKLARI**

O‘rinova Shoxsanamxon Nosirjon qizi

Tashkent state transport university

Department of foreign languages

Doctoral student

Introduction

Menasiv nutqiy aktlar, ya'ni tahdid mazmunidagi nutqiy birliklar, kommunikatsiyada muhim pragmatik vosita sifatida qaraladi. Ushbu turdagi nutqiy aktlar suhbatdoshning harakatlarini nazorat qilish va unga bosim o'tkazish maqsadida foydalaniladi. J. Searle nazariyasiga ko'ra, bunday nutqiy aktlar direktiv illokutiv aktlar sirasiga kiradi, chunki ular tinglovchini kelajakdagi xatti-harakatini boshqarishga undaydi. Illokutiv akt – so'zlovchining maqsadini ya'ni so'z orqali tinglovchiga qanday ta'sir o'tkaza olishini ifodalaydi. Ayniqsa, so'nggi yillarda nutqiy zo'ravonlik va ijtimoiy bosim holatlarining ortib borayotgani munosabati bilan, menasiv (tahdidli) nutq aktlarini alohida tahlil qilish ehtiyoji tug'ilmoqda. Tahdid ifodalovchi nutq birliklari inson psixologiyasiga va ijtimoiy muhitga ta'sir qiluvchi vosita sifatida siyosiy chiqishlar, huquqiy nutqlar, ommaviy axborot vositalaridagi bayonotlar, hatto kundalik nutqiy amalyotda ham kuzatiladi. Shu bois, menasiv nutq aktlarini semantik va pragmatik jihatdan tizimli tahlil qilish, ularning lingvistik strukturasi va kommunikativ maqsadini aniqlash bilan bir qatorda ularning madaniyatlararo muloqotdagi o'ziga xosliklarini tadqiq etish ilmiy izlanishlar nuqtai nazaridan alohida e'tborga molik masalaga aylanmoqda. Globallashuv sharoitida tahdid, ogohlantirish va ogohlovchi ifodalar madaniyatlararo muloqotga ko'chib o'tmoqda, bu esa intercultural competenceni shakllantirish zaruratini kuchaytirmoqda .

Research Objectives

Mazkur tadqiqot quyidagi maqsadlarni o'z oldiga vazifa qilib qo'yadi:

- a) Turli madaniyatlarda, xususan g'arb va sharq mamlakatlarida menasiv nutqiy aktlarning lingvopragmatik xususiyatlarini tahlil qilish;
- b) menasiv nutqiy aktlarni madaniyatlararo muloqotga ta'sirini baholash;
- c) Global muloqotdada tahdid ifodalarini 3 ta usulda ko'rib chiqish; yumshatish, kuchaytirish yoki neytrallash strategiyalarini tadqiq etish.

Materials and Methods

Menasiv nutqiy aktlarni madaniyatlararo tahlil qilishda qiyosiy va tavsifiy metodlardan foydalanildi. Ingliz, rus va o'zbek tilidagi badiiy matnlar, siyosiy nutqlar hamda kundalik muloqotdan misollar jamlandi. Shu bilan birgalikda, pragmatik tahlil va diskurs tahlili yordamida tahdid nutqiy aktlarining perlokutiv ta'siri ochib berildi. Madaniyatlararo muloqot nazariyalari (Byram, Gudykunst) asosida hasr xil madaniyatlarda tahdidning idrok etilish usullari ham nazardan chetda qolmadi.

INTERNATIONAL CONFERENCE
“Global Horizons in Philology and Pedagogy: Experiences of Turkic Nations”
September 25, 2025

Research Results

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki:

G'arb madaniyatida tahdid ko'p hollarda ochiq va bevosita ko'rsatiladi, Sharq madaniyatlarida esa tahdid kontekstga bog'liq holda bilvosita ifodalaniladi. Masalan, AQSh siyosiy nutqlarida “If you don't comply, we will impose sanctions” kabi to'g'ridan to'g'ri tahdid qilinadi. O'zbek tilida esa “Agar shunday davom etsa, oqibatlar og'ir bo'ladi yoki og'ir bo'lishi mumkin” kabi bilvosita ogohlantirish tarzida tahdidning namoyon qilish usullari ko'p uchraydi. Tahdidning kuchi ko'p vaziyatlarda suhbatdoshlar o'rtasidagi ijtimoiy mavqe va kuch munosabatlariga bog'liq ham bo'ladi. Masalan, O'qituvchining “If you don't hand in your assignment, you will fail the course” jumlasida tahdid sifatida kuchli pragmatik ta'sir ko'rsatadi buning sababi o'qituvchining mavqei o'quvchilikidan ko'ra balandro ekanligi. Ammo talaba o'qituvchiga shunday jumla ishlatilsa, u ijtimoiy jihatdan nomaqbul bo'ladi va kuchli ta'sirga ega emas. Demak mavqei o'zaro teng yoki katta tafovut bo'lgan suhbatdoshlar o'rtasidagi munosabatlarda tahdidning ta'sir kuchi pastor bo'lishi mumkinligini ko'rishimiz mumkin. Madaniyatlararo muloqotda tahdidni noto'g'ri talqin qilish ko'pincha mojarolarga sabab bo'ladi. Masalan, Rus tilida ishlatiladigan “Ya tebya naydu” (“Men seni topaman”) jumlasida rus kontekstida ko'pincha suhbatdosh qarshiligini bildiruvchi ifoda bo'lsa, ingliz tilida so'zlashuvchilarga bu og'ir jinoyat tahdidi kabi ko'rinishi mumkin. Madaniyatlararo muloqot qobilyatini rivojlantirish tahdidni to'g'ri talqin qilish, nizolarni kamaytirish va global muloqotni samarali qilishga o'z hissasini qo'shadi. Masalan, Xalqaro diplomatiyada “We may be forced to reconsider our cooperation” kabi yumshatilgan tahdid ishlatilsa, u bevosita agressiyani yashirsada, kerakli pragmatik kuchni saqlab qoladi.

Conclusion

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, menasiv nutqiy aktlar nafaqat nutqiy ta'sir vositasi, balki madaniy qadriyat va ijtimoiy ierarxiyani aks ettiruvchi marker hamdir. Ularning global kommunikatsiyadagi o'rnini madaniyatlararo kompetensiyaning ahamiyatini yanada oshiradi. Kelgusida, ayniqsa, raqamli muloqot (onlayn tahdidlar, kiberbulling)da tahdidning yangi shakllarini chuqurroq o'rganish dolzarb masalaga aylanib bormoqda.